

**GEOSIYOSIY RAQOBATDAN GEOIQTISODIY RAQOBATGA: ZAMONAVIY XALQARO MUNOSABATLARDA DAVLATLARNING IQTISODIY STRATEGIYALARI**

Orifjonov Xasanboy Baxrom o'g'li  
Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti  
Xalqaro munosabatlar va zamonaviy siyosiy jarayonlar yo'nalishi  
2-bosqich magistranti  
[orifjonovxasanboy8@gmail.com](mailto:orifjonovxasanboy8@gmail.com)

**Annotatsiya**

*Mazkur maqolada geoiqtisodiyot tushunchasining shakllanishi, uning nazariy asoslari va zamonaviy xalqaro munosabatlardagi o'рни tahlil qilinadi. Sovuq urushdan keyingi davrda davlatlararo raqobatning harbiy vositalardan iqtisodiy instrumentlarga o'tishi geoiqtisodiy yondashuvning ahamiyatini oshirdi. Maqolada geoiqtisodiyotning turli ta'riflari, neoimperializm, neomerkantilizm, zamonaviy dunyo tizimi hamda resurs urushlari nazariyalari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, geosiyosiy va geoiqtisodiy instrumentlarning uyg'unlashuvi davlatlarning milliy manfaatlarini ilgari surishdagi strategik ahamiyati yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *geoiqtisodiyot, geosiyosat, neomerkantilizm, neoimperializm, resurs urushlari, zamonaviy dunyo tizimi, iqtisodiy diplomatiya, iqtisodiy xavfsizlik.*

**ОТ ГЕОПОЛИТИЧЕСКОГО СОПЕРНИЧЕСТВА К ГЕОЭКОНОМИЧЕСКОЙ КОНКУРЕНЦИИ: ЭКОНОМИЧЕСКИЕ СТРАТЕГИИ ГОСУДАРСТВ В СОВРЕМЕННЫХ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЯХ**

Орифжонов Хасанбой Бахромович  
Ташкентский государственный университет востоковедения  
Магистрант 2-го курса, направление  
«Международные отношения и современные политические процессы»  
[orifjonovxasanboy8@gmail.com](mailto:orifjonovxasanboy8@gmail.com)

**Аннотация**

*В данной статье анализируются формирование концепции геоэкономики, её теоретические основы и роль в современных международных отношениях. После окончания холодной войны конкуренция между государствами постепенно сместилась от военных методов к экономическим инструментам, что повысило значение геоэкономического подхода. В статье рассматриваются различные определения геоэкономики, а также теории неоимпериализма, неомеркантилизма, мировой системы и ресурсных войн. Особое внимание уделяется взаимосвязи геополитических и геоэкономических инструментов в обеспечении национальных интересов государств.*

**Ключевые слова:** *геоэкономика, геополитика, неомеркантилизм, неоимпериализм, ресурсные войны, мировая система, экономическая дипломатия, экономическая безопасность.*

**FROM GEOPOLITICAL RIVALRY TO GEOECONOMIC COMPETITION: STATES' ECONOMIC STRATEGIES IN CONTEMPORARY INTERNATIONAL RELATIONS**

VOLUME-6, ISSUE-6

Orifjonov Hasanboy Bakhrom o'g'li  
Tashkent State University of Oriental Studies  
1st-year Master's student,  
International Relations and Contemporary Political Processes  
[orifjonovxasanboy8@gmail.com](mailto:orifjonovxasanboy8@gmail.com)

**Abstract**

*This article examines the emergence of geoeconomics, its theoretical foundations, and its role in contemporary international relations. Following the end of the Cold War, interstate competition increasingly shifted from military means to economic instruments, enhancing the significance of geoeconomic approaches. The study discusses various definitions of geoeconomics and analyzes major theoretical perspectives, including neo-imperialism, neo-mercantilism, world-systems theory, and resource wars. Furthermore, the article highlights the strategic importance of integrating geopolitical and geoeconomic instruments in advancing national interests and strengthening states' positions in the global arena.*

**Keywords:** *geoeconomics, geopolitics, neo-mercantilism, neo-imperialism, resource wars, world-systems theory, economic diplomacy, economic security.*

**KIRISH**

XX asrning ikkinchi yarmigacha davlatlar o'rtasidagi raqobat asosan harbiy qudrat va geosiyosiy ustunlik orqali amalga oshirilgan bo'lsa, Sovuq urush yakunlanganidan so'ng xalqaro tizimda yangi tendensiyalar shakllandi. Globalizatsiya, iqtisodiy integratsiya va texnologik taraqqiyot natijasida davlatlar o'z manfaatlarini ilgari surishda iqtisodiy vositalardan tobora kengroq foydalana boshladilar. Natijada geosiyosiy raqobatning muhim qismi geoiqtisodiy maydonga ko'chdi.

Bugungi kunda savdo siyosati, iqtisodiy sanksiyalar, investitsiyalar, texnologik ustunlik va strategik resurslar ustidan nazorat davlatlar qudratini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bois geoiqtisodiyot zamonaviy xalqaro munosabatlarni tahlil qilishda muhim nazariy va amaliy yo'nalish sifatida shakllandi.

Mazkur maqolaning maqsadi geoiqtisodiyot tushunchasi, uning nazariy asoslari hamda zamonaviy xalqaro munosabatlardagi geoiqtisodiy yondashuvlarning ahamiyatini tahlil qilishdan iborat.

**ASOSIY QISM**

**Geoiqtisodiyot tushunchasi va uning nazariy asoslari**

Geoiqtisodiyot atamasi ilk bor 1990-yilda amerikalik tadqiqotchi Edward N. Luttwak tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. U o'zining "From Geopolitics to Geo-Economics: Logic of Conflict, Grammar of Commerce" nomli maqolasida Sovuq urushdan keyingi davrda davlatlararo raqobat harbiy vositalardan iqtisodiy instrumentlarga o'tishini ta'kidlagan. Luttwakning fikricha, harbiy kuch o'rnini kapital, innovatsiyalar va bozorlarni egallash strategiyalari egallay boshlagan<sup>1</sup>.

Geoiqtisodiyotning keyingi rivojlanishida Antto Vihma muhim hissa qo'shib, iqtisodiy vositalarning strategik maqsadlar yo'lida qo'llanishini geoiqtisodiy tahlilning markaziy elementi

---

<sup>1</sup> Edward N. Luttwak. *From Geopolitics to Geo-Economics: Logic of Conflict, Grammar of Commerce*. The National Interest, 1990.

sifatida ko'rsatdi. Unga ko'ra, savdo kelishuvlari, iqtisodiy sanksiyalar va moliyaviy rag'batlantirish choralari davlat tashqi siyosatining muhim instrumentlariga aylangan<sup>2</sup>.

Ozarbayjonlik iqtisodchi Vusal Gasimli geoiqtisodiyotni iqtisodiyot, geografiya va siyosatshunoslik o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganadigan fan sifatida ta'riflaydi. Bu yondashuv geoiqtisodiyotning kompleks xarakterini aks ettiradi<sup>3</sup>.

Shuningdek, Richard Youngs geoiqtisodiyotni davlat faoliyatining iqtisodiy maqsadlar uchun qo'llanilishi, iqtisodiy qudratga intilish, resurslarni nazorat qilish hamda iqtisodiy xavfsizlikning ustuvorligi bilan bog'laydi<sup>4</sup>.

#### **Geoiqtisodiyotning zamonaviy ahamiyati**

XXI asr boshlaridan boshlab xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlari jadallashdi. Erkin savdo bitimlari, iqtisodiy ittifoqlar, xalqaro moliyaviy institutlar va global ishlab chiqarish zanjirlari davlatlararo aloqalarning asosiy mexanizmlariga aylandi. Shu sababli geoiqtisodiy vositalar tashqi siyosatning muhim tarkibiy qismiga aylandi.

Davlatlar iqtisodiy sanksiyalar, investitsiya siyosati, infratuzilmaviy loyihalar, energetik hamkorlik va texnologik ustunlik orqali geostrategik maqsadlariga erishishga intilmoqda. Bunday yondashuvlar geoiqtisodiyotning amaliy ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda.

#### **Neoimperializm nazariyasi**

Neoimperializm zamonaviy geoiqtisodiy yondashuvlardan biri bo'lib, iqtisodiy vositalar orqali geosiyosiy ta'sir doirasini kengaytirishni nazarda tutadi. Mazkur nazariyaga ko'ra, kuchli davlatlar zaif davlatlarni iqtisodiy jihatdan o'ziga bog'lab qo'yish orqali siyosiy ta'sirini mustahkamlaydi.

Neoimperialistik strategiyalar savdo cheklovlari, moliyaviy bosimlar, kredit siyosati va iqtisodiy sanksiyalar kabi vositalar orqali amalga oshiriladi. Ushbu yondashuvda vositalar iqtisodiy bo'lsa-da, maqsad geosiyosiy ustunlikka erishishdan iboratdir.

#### **Neomerkantilizm nazariyasi**

Neomerkantilizm geoiqtisodiyotning eng muhim nazariy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Uning ildizlari XVI–XVIII asrlardagi klassik merkantilizmga borib taqaladi. Zamonaviy sharoitda ushbu g'oyalar qayta talqin qilinib, davlatning iqtisodiyotdagi faol rolini asoslovchi nazariyaga aylandi.

Neomerkantilizmga ko'ra, iqtisodiy qudrat savdo hajmi bilan bir qatorda sanoat salohiyati, texnologik ustunlik va strategik resurslar ustidan nazorat orqali ham belgilanadi. Shu sababli davlat strategik tarmoqlarni himoya qilishi va milliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashi zarur.

Neomerkantilizm nazariyasining rivojlanishida Friedrich List muhim o'rin tutadi. U milliy sanoatni himoya qilish va davlatning iqtisodiyotdagi faol rolini asoslab bergan<sup>5</sup>.

<sup>2</sup> Antto Vihma. *Geoeconomics Defined and Explained*. Finnish Institute of International Affairs.

<sup>3</sup> Vusal Gasimli. *Geoeconomics: Fundamentals and Perspectives*.

<sup>4</sup> Richard Youngs. *Geoeconomics and European Power*.

<sup>5</sup> Friedrich List. *The National System of Political Economy*. London: Longmans, Green and Co., 1909.

Shuningdek, Robert Gilpin xalqaro siyosiy iqtisodiyotdagi kuch munosabatlarini tahlil qilib, iqtisodiy qudratni siyosiy qudratning asosi sifatida baholagan<sup>6</sup>.

Susan Strange tomonidan ishlab chiqilgan “strukturaviy kuch” konsepsiyasi ham neomerkantilistik yondashuvni boyitgan. U moliya, ishlab chiqarish, xavfsizlik va bilimlar ustidan nazoratni davlatlararo raqobatning asosiy omili sifatida ko‘rsatgan.

Neomerkantilizmning geoiqtisodiy mohiyatini ochib berishda David A. Baldwin tomonidan ilgari surilgan “iqtisodiy davlat san’ati” konsepsiyasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur konsepsiya iqtisodiy bosim va rag‘batlantirish vositalarining tashqi siyosatdagi rolini yoritadi<sup>7</sup>.

### **Zamonaviy dunyo tizimi nazariyasi**

Zamonaviy dunyo tizimi nazariyasi global iqtisodiy tizimni ierarxik tuzilma sifatida talqin qiladi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, dunyo iqtisodiyoti markaz, yarim periferiya va periferiya davlatlariga bo‘linadi.

Markaz davlatlar yuqori texnologiyalar, moliyaviy kapital va innovatsion ishlab chiqarish orqali global iqtisodiyotning asosiy boshqaruv markazini tashkil etadi. Periferik davlatlar esa asosan xomashyo eksportiga va arzon ishchi kuchiga tayanadi. Yarim periferik davlatlar esa markaz va periferiya o‘rtasidagi vositachi iqtisodiy pozitsiyani egallaydi.

Mazkur nazariya davlatlar o‘rtasidagi uzoq muddatli iqtisodiy tengsizliklarni tushuntirishda muhim metodologik asos hisoblanadi.

### **Resurs urushlari nazariyasi**

Resurs urushlari nazariyasi strategik tabiiy resurslar ustidan nazorat xalqaro raqobatning asosiy omillaridan biri ekanligini ta’kidlaydi. Ushbu nazariyaning rivojlanishida Michael T. Klare<sup>8</sup> va Thomas Homer-Dixon<sup>9</sup> muhim o‘rin tutadi.

Nazariyaga ko‘ra:

1. Strategik resurslar davlat qudratining asosiy manbalaridan biridir.
2. Resurslar tanqisligi davlatlararo mojarolar xavfini oshiradi.
3. Resurslar ustidan nazorat iqtisodiy, siyosiy va harbiy vositalar orqali amalga oshiriladi.
4. Energetik va mineral resurslar geoiqtisodiy instrument sifatida qo‘llaniladi.

Yaqin Sharqdagi neft-gaz resurslari va Markaziy Osiyodagi suv resurslari atrofidagi raqobat ushbu nazariyaning amaliy ahamiyatini namoyon etadi

### **Geosiyosat va geoiqtisodiyotning o‘zaro bog‘liqligi**

<sup>6</sup> Robert Gilpin. *Global Political Economy: Understanding the International Economic Order*. Princeton University Press, 2001.

<sup>7</sup> David A. Baldwin. *Economic Statecraft*. Princeton University Press, 1985.

<sup>8</sup> Michael T. Klare. *Resource Wars: The New Landscape of Global Conflict*. New York: Metropolitan Books, 2001.

<sup>9</sup> Thomas Homer-Dixon. *Environment, Scarcity and Violence*. Princeton University Press, 1999.

Zamonaviy xalqaro munosabatlarda geosiyosiy va geoiqtisodiy yondashuvlar bir-birini to'ldiruvchi strategik instrumentlar sifatida namoyon bo'lmoqda. Geosiyosat davlatlarning xavfsizlik, hududiy manfaatlar va siyosiy ta'sir doirasini kengaytirishga xizmat qilsa, geoiqtisodiyot savdo, investitsiya, texnologiya va resurslar orqali davlat qudratini mustahkamlaydi.

Natijada, zamonaviy davlatlar o'z tashqi siyosatini ishlab chiqishda ushbu ikki yondashuvni integratsiyalashgan holda qo'llashga intilmoqda. Bu esa global raqobat sharoitida milliy manfaatlarni samarali himoya qilish imkonini yaratadi.

#### XULOSA

Geoiqtisodiyot XXI asr xalqaro munosabatlarining muhim nazariy va amaliy yo'nalishlaridan biriga aylandi. Sovuq urushdan keyingi davrda davlatlararo raqobatning markazi harbiy vositalardan iqtisodiy instrumentlarga ko'chishi geoiqtisodiy yondashuvning ahamiyatini keskin oshirdi.

Neoimperializm, neomerkantilizm, zamonaviy dunyo tizimi va resurs urushlari nazariyalari geoiqtisodiyotning turli jihatlarini yoritib beradi hamda davlatlarning iqtisodiy vositalardan strategik maqsadlarda foydalanish mexanizmlarini tushuntiradi. Zamonaviy xalqaro tizimda iqtisodiy xavfsizlik, texnologik mustaqillik, strategik resurslar va savdo siyosati davlat qudratini belgilovchi muhim omillarga aylanmoqda.

Shu sababli geosiyosiy va geoiqtisodiy instrumentlarning uyg'unlashuvi davlatlarga murakkab global sharoitlarda raqobatbardosh strategiyalar ishlab chiqish, milliy manfaatlarni himoya qilish va xalqaro maydondagi mavqegini mustahkamlash imkonini beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Edward N. Luttwak. *From Geopolitics to Geo-Economics: Logic of Conflict, Grammar of Commerce*. The National Interest, 1990.
2. Antto Vihma. *Geoeconomics Defined and Explained*. Finnish Institute of International Affairs.
3. Vusal Gasimli. *Geoeconomics: Fundamentals and Perspectives*.
4. Richard Youngs. *Geoeconomics and European Power*.
5. Friedrich List. *The National System of Political Economy*. London: Longmans, Green and Co., 1909.
6. Robert Gilpin. *Global Political Economy: Understanding the International Economic Order*. Princeton University Press, 2001.
7. Susan Strange. *States and Markets*. London: Pinter Publishers, 1988.
8. David A. Baldwin. *Economic Statecraft*. Princeton University Press, 1985.
9. Michael T. Klare. *Resource Wars: The New Landscape of Global Conflict*. New York: Metropolitan Books, 2001.
10. Thomas Homer-Dixon. *Environment, Scarcity and Violence*. Princeton University Press, 1999.